

**BEHBUDIY ILMIY MEROSIDA O'LKA XALQLARI ETNOGRAFIYASIGA  
OID MA'LUMOTLAR**

*SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi*

**Begaliyev Nurbek**

*SHDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi talabasi*

**Abduraximova Hushnida**

**Annotatsiya:** *O'zbek xalqining ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidlarining otasi sifatida e'tirof etiladi. Uning O'rta Osiyo xalqlarining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi milliy urf-odatlarini o'z maqolalarida tahlil qilib, jamiyat rivoji uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi haqida yozib qoldirgan. Ushbu maqolada Turkiston xalqlarining etnomadaniyatining nuqsonlari o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Zarafshon, fors, etnografiya, dorilfunun, Madina, zulhijja, Turkiya, Qrim, muftiy.*

**Annotation.** *Mahmudhoja Behbudi, the enlightener of the Uzbek people, is recognized as the father of Turkestan moderns. In his articles, he analyzed the national traditions of the peoples of Central Asia in the late 19th and early 20th centuries and wrote about their negative consequences for the development of society.*

**Key words:** *Zarafshan, Persian, ethnography, dorilfunun, Medina, zulhijja, Turkey, Crimea, mufti.*

**Абстрактный.** *Махмудходжа Бехбуди, просветитель узбекского народа, признан отцом туркестанского модерна. В своих статьях он анализировал национальные традиции народов Средней Азии конца 19 - начала 20 веков и писал об их негативных последствиях для развития общества.*

**Ключевые слова:** *Зарафшан, персы, этнография, дорилфунун, Медина, зультхиджа, Турция, Крым, муфтий.*

Behbudiyning hayoti haqida bizgacha oz ma'lumotlar yetib kelgan. Ularning ham asosiy qismi Behbudiyning sodiq shogirdlari va safdoshlaridan biri atoqli dramaturg va jurnalist Hoji Muinning (1883-1942) "Mehnatkashlar tovushi" va "Zarafshon" gazetalari hamda "Uchqun" jurnalida chop etilgan maqolalari eng ishonchli va mo'tabar manbadir. Hoji Muinning bergan ma'lumotlariga ko'ra Mahmudxo'ja Behbudiy 1875- yilning 19-yanvarida (hijriy 1291, 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja urganchlik bo'lib, amir Shohmurod zamonida (1780-1785) Samarqandga kelib qolgan.<sup>44</sup>

<sup>44</sup> B.Qosimov Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T.: "MA'NAVIYAT" 2022 y. 218 b.

Diniy muhitning shakllanishida avvalo Niyozxo'ja tug'ma ko'zi ojiz bo'lib, yoshligidanoq Qur'oni Karimni yoddan bilgan. Hoji Niyozxo'ja Urganjiy nomini olgan va o'zining avlodlarini ham diniy bilimlar asosida tarbiyalab borgan. Otasining asl ismi Sultonxo'ja bo'lib, "Behbudxo'ja" uning laqabi hisoblangan. "Yaxshilik", "foйда", "najot" ma'nolarini anglatgan<sup>45</sup> ushbu so'z Mahmudxo'janing otasining hislatiga berilgan ta'rifdir balkim. Dastlabki bilimlarini tog'asidan oladi so'ngra 10-11 yoshlarida Qur'oni Karimni yod oladi. Yana bir tog'asidan esa arab tili grammatikasini o'rganadi. Bu orada uning avval validasi so'nga validi ham vafot etadi. Yagona o'g'il bo'lganligi sababli keyingi faoliyatini tog'asi Muhammad Siddiq huzurida mirzolik vazifasida davom ettiradi. Mazkur sohada harakatini davom ettirib, muftiy darajasiga ko'tariladi.

1899-yilda Islom dunyosida muqaddas ziyoratgoh sanalgan Makka-yu Madinaga qilgan safari davomida o'zi ko'rgan xalqlar urf-odatlariga qadriyatlariga ham e'tibor qaratib o'z maqolalarida O'rta Osiyo aholisi madaniyati bilan solishtirib o'zgartirishga harakat qilgan. Xalqimizda "birni ko'rib shukur qil, mingni ko'rib fikr qil" degan naql bor. Sayohat chog'ida u Rossiya shaharlari, Qrim, Eron, Turkiya, Misr mamlakatlarida bo'ldi. Safar jarayonida savdo ishlari, zarur va muhim bitim va munosabatlar tuzish, ham diniy, ham dunyoviy aloqalar o'rnatish, fikr almashishdir.<sup>46</sup> Behbudiyning keyingi butun faoliyati xalqni ilmiy qilishga qaratdi. Bu yo'lda ulkan va keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdi. Borib o'z ko'zi bilan ko'rgan shaharlardagi universitetlar bilan alohida tanishar ekan, Bayrutdagi universitetga borib nadomat bilan «Bu yerda, Turkistondan tashqari, dunyoning barcha mamlakatlaridan yoshlar kelib o'qishadi»<sup>47</sup>, deydi. M.Behbudiy shunchaki sayohat qilmagani, balki o'zi borgan mamlakatlar xalqlarining ilmiy-ijodiy merosini o'rganganiga shak-shubha yo'q. Bu safarlar uning bilimlarini boyitishda va gumanistik falsafasi rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Behbudiyning o'z maqolalarida tanqidiy ruhda O'rta Osiyoning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi etnomadaniy holatlariga fikr bildiradi.<sup>48</sup>

Jumladan, Behbudiyning "Oyna" jurnaliga bergan maqolalarini tahlil qilib chiqamiz. "Ikki emas, to'rt til lozim" nomli maqolasida o'z davri uchun to'rt tilni bilishlik lozimligini uqtiradi. Vaholanki, bu jihat hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. "Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur". Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur. Turkiy til bugungi kunda hozirgi o'zbek tilini bilish demakdir. O'z ona tilini bilish har bir insonning vazifasidir. Ayniqsa o'zbek xalqining birgina tili uning identiklik belgisi sifatida ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bu asosiy masaladir." Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidir. Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi

<sup>45</sup> [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

<sup>46</sup> D.Alimova. Mahmudxo'ja Behbudiy. Millat ehtiyojiga baxshida umr. Toshkent-2021 y. 13 b.

<sup>47</sup> Mahmudxo'ja Behbudiyu Yoshlarg'a murojaat. T.: "MA'NAVIYAT" 2022 y. 11-13 b.b.

<sup>48</sup> D.Alimova. Jadidchilik fenomeni. T.: Akademnashr. 2022 y. 149-150 b.b.

maktablarida forsiynazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur. Turkistonning Samarqand va Farg'ona viloyatlarida forscha so'ylaturgan bir necha shahar va qishloqlar bordur". Ushbu fikrlar orqali O'rta Osiyo aholisining so'zlashuvi tili turkiy bo'lib Samarqand va Farg'onada forsiy tilda so'zlashganlar borligi uchun ta'lim tili ham forsiycha olib borilganligini bilishimiz mumkin. "Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo'lur, na uchunki bugun Usmonli, Kafkaz va Qazon turklari zamona ulamosi asarini turkiyg'a tarjima qilib, ko'paytirgandurlar, ya'ni turkiy bilgan kishi zamoni bilur." Rus tili esa davlat hujjatlarini yuritishda, shu bilan birga o'z davri uchun davlat tili bo'lib hisoblangan. Arab tili esa diniy bilimlarni egallashda asosiy til ekanligini ta'kidlab o'tadi. Turkiy, arab, fors va rus tillarini o'rganish asosiy masala ekanligini va yurt rivoji uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi.<sup>49</sup> O'rta Osiyodagi til masalasida fikrlarini bayon etadi.

1913-yilda chop etilgan "Oyna" jurnalining 1-sonidagi "Turkiston" maqolasi etnografik jihatdan ma'lumotlarga boy ekanligini aytib o'tishimiz mumkin. Maqola Turkistonning geografik joylashuvi, uning chegara hududlari, ma'muriy birliklari va boshqaruvi va aholisi haqida ma'lumot berib o'tadi. "Turkistonda xaloyiqdan yuzda to'qson beshdan ziyodasi musulmon bo'lub, har bir yuz nafar odamdan to'rt nafar qadari nasoro va yahudiydur." Maqolada keltirilgan jadvalda esa viloyat va uyezd nomlari, ularning hududi va aholisi haqida ma'lumot berilgan.<sup>50</sup>

Behbudiy o'z maqolalarida turkistonliklarning turli tadbir, to'ylaridan tortib milliy o'yinlarigacha bo'lgan har kunlik turmush tarzini tahlil qilib undagi nuqsonlarni shunday deydi: u xalqni isrofli tadbirlardan vos kechib, ularga sarf qilinadigan mablag'ni iqtisodning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash maqsadida davlat ta'lim muassasalarida bolalarni o'qishi uchun yo'naltirishga da'vat etadi. Behbudiy bu xarakterlarini umummilliy ishlar, oliy maqsadlar, xohishlar va intilishlar deb ataydi.<sup>51</sup>

Behbudiyning 1915- yilda "Oyna" jurnalining 13-sonida chop etilgan "Bizni kemirguvchi illatlar" maqolasida o'zbek xalqiga xos to'y va aza marosimlarining urf-odatlarini tanqid qiladi. Navro'z bayramida bo'ladigan mushakdan odamlar o'lib, ko'plari jarohatlanishi, ko'pkari o'yinlarida qanchadan qancha insonlar va otlarning mayib va majruh bo'lishi, barcha o'z ishini tashlab ana shunday tomoshalarni ko'rishga oshiqadi, natijada barcha ishlar to'xtaydi va uning natijasi ham kechikadi. Yahudiylarda hech kim ishdan qolmaslik o'likni kechki payt ko'mishadi. Bizda aza ham katta mablag'ni talab etadigan bir marosimdir. O'likning mol-mulkini avval o'ziga sarf etishlik kerak ya'ni ko'mish uchun kerakli narsalar uchun, qolgan qismini agar uni qarzi bo'lsa, ularni to'lashga va qolgan qismini esa qolgan yaqinlari orasida taqsim qilinishi

<sup>49</sup> Mahmudxo'ja Behbudiyu Yoshlar'ga murojaat. T.: "MA'NAVIYAT" 2022 y. 11-13 b.b.

<sup>50</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, "MA'NAVIYAT" 2006 y. 156 b.

<sup>51</sup> R.Shamsutdinov, Sh.Saydulieva. Turkiston jadidlari va milliy g'oya targ'iboti / Jadid ma'rifatchilik harakatining g'oyaviy asoslari. Toshkent. "Toshkent islom universiteti". 34 bet.

kerak. Biroq bizda esa avval o'ziga ishlatilsa, keyin esa qilinadigan marosimlarga ishlatiladi. "biz bil'aks kafandan so'ngra Taklif - bu yerda, insoniy burch, vazifa ma'nosida qarzg'a bermay va hatto, sag'ir va benavo xotunlarni merosini yirtish, azoyi, sadaqa, xayrot, bilmayman, nimalar ujrasi deb, qarzdand vorisidan ilgari taqsim qilib olarmiz. Besh-olti ma'raka va xudoyi, 8—10 jum'a oqshomi deb butun mahalla va qishloq xalqig'a palov berarmiz". Mana shu to'y va marosimlarning o'tkazilishi davomida xalqning parokandaligi arifmetik ravishda o'sib boraveradi. Samarqandda bir mahalla borki, aksar xalqi faqru zaruratdan, to'g'risi, aql noqisligidan havlilarini pulg'a qiziqib yahudiylarg'a sotgan uchun mahallag'a oz musulmon qoldi. Mahalla, maktabi yo'q bo'ldi. Masjidida yaqinda yo'qolur. Mana, bizni aqlsizligimizni oxiri va isroflarimizni xotimasi dinimizg'a futur kelmoqig'a sabab bo'lur. Din uchun, masjid va maktab uchun aqcha, sarvat, davlat, somon kerakdur. To'y va ta'ziyaga sarf qilinaturg'on oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovropoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimizda, dinimizda obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur.<sup>52</sup>

Behbudiy o'z maqolalarida turkistonliklarning turli tadbir, to'ylaridan tortib milliy o'yinlarigacha bo'lgan har kunlik turmush tarzini tahlil qilib XIX asr va XX asr boshida o'lka xalqinig etnomadaniy inqiroziga shunday fikr beradi, xalqni ko'zini ochib yon-tevaragidagi millatlar ishlariga va qanday yashayotganlariga qarashga chaqiradi. U xalqni isrofli tadbirlardan vos kechib, ularga sarf qilinadigan mablag'ni iqtisodning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash maqsadida davlat ta'lim muassasalarida bolalarni o'qishi uchun yo'naltirishga da'vat etadi. Behbudiy bu xarakterlarini umummilliy ishlar, oliy maqsadlar, xohishlar va intilishlar deb ataydi.<sup>53</sup> "Oyna" jurnali, umuman Behbudiyning butun umri o'z xalqini uyg'otish va taraqqiyotiga xizmat qilish maqsadlariga bag'ishlangan edi. Har tomonlama u o'z xalqini ma'rifatga boshladi Behbudiy uchun ma'rifat va taraqqiyotning qo'l urmagan sohasi qolmagan hisob. Bunga birgina "Oyna" jurnalining mundariyasi yaqqol misol bo'la oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Behbudiy qo'l urgan mavzular davr uchun dolzarb va og'riqli nuqtalar hisoblangan. Eng ko'p e'tibor tortadigan jihati jamiyatning qoloqlik sababini ilmsizlik bilan savodsizlikdan ham ko'proq to'y-hasham va azamarakalarni ko'rsatadi. Bu illat xalqning ma'lum bir qismi yoki faqatgina boylar orasida tarqalibgina qolmay barcha qatlam orasida keng tarqalgan. Eng afsuslanarlisi shundaki, bir qancha odamlar to'y qilib qarzg'a botib, butun umri qarz to'lash bilan o'tsada biroq bundan to'g'ri xulosa chiqarmaydi. Birgina to'y qilish emas, qolganlarga nisbatan yaxshiroq qilish niyatida ko'proq xarj qiladi. Natijada agarda orttirgan mablag'i bo'lsa uni sarflaydi bo'lmasa qarz olib uni to'laydi. Bu fikrlar bilan Behbudiy

<sup>52</sup> Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent. "MA'NAVİYAT" 2006 y. 185 b

<sup>53</sup> R. Shamsutdinov, Sh. Saydulieva. Turkiston jadidlari va milliy g'oya targ'iboti / jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. Toshkent. "Toshkent islom universiteti" 2016 y. 36 b.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xalqning og'ir turmush tarziga xalqning uzi sababchi ekanligini va xalqning turmush tarzini yaxshilash va yoshlarni ilmi qilish maqsadida yuqorida aytib o'tilgan tadbirlarni soddaroq holatda qilishga da'vat etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.B.Qosimov Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. T.: "MA'NAVIYAT" 2022 y.
- 2.D.A.Alimov, D.A.Rashidova. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. T.: "Akademiya" nashriyoti. 1999 y.
- 3.D.Alimova. Mahmudxo'ja Behbudiy. Millat ehtiyojiga baxshida umr. Toshkent-2021 y.
- 4.D.Alimova. Jadidchilik fenomeni. T.: Akademiya nashr. 2022 y.
- 5.Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, "MA'NAVIYAT" 2006 y.
6. Mahmudxo'ja Behbudiy. Yoshlarg'a murojaat. T.: "MA'NAVIYAT" 2022 y.
- 7.R.Shamsutdinov, Sh.Saydulieva. Turkiston jadidlari va milliy g'oya targ'iboti / jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. Toshkent. "Toshkent islom universiteti" 2016 y.
8. www.ziyouz.com kutubxonasi
9. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).
8. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 311-313).
9. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(4), 4-8.
10. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оилага тайёрлашда оилада эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунтириш. Academic research in educational sciences, 3(1), 68-75.
11. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIY BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(26), 335-338.
12. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.